

Date: 1st November-2025

QIRQ AFSONA YOXUD “HAQQUSH QICHQIRIG‘I” BADIYATI

Nasiba Norova

BuxDU dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Email: nasibanorova@gmail.com

Shahrizoda Do‘stmurodova

BITU 2-bosqich magistranti

Email: dostmurodovashahrizoda@gmail.com

Annotatsiya: XX asrning 70-yillar she‘riyati o‘ziga xos nafis tuyg‘ularni madh etishi bilan birga, inson qalbining eng inja hissiyotlarini junbushga keltirdi. Yuraklarga kirib brogan sheriyat rivojida o‘zining o‘tli nafasi, betakror oxorli tashbehlari, tarixiy mavzudagi talqinlari, Navoiy ruhiyatiga yaqinligi bilan ajralib turadigan iste‘dodli shoir Omon Matjonning ham alohida hissasi bor. Biz ushbu maqolada o‘tyurak shirning “Haqqush qichqirig‘i” asarini tahlilga tortmiz. Asarning badiiyati, obrazlar olami haqida fikr yuritimiz.

Kalit so‘zlar: She‘riyat, badiiy mahoroat, afsona, xalq og‘zaki ijodi, qush, obraz

Kirish. O‘tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshida o‘zbek she‘riyatiga olovli, yangi nafaslar paydo bo‘ldi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim singari. Bularning xizmatlari nafaqat she‘riyat balki, nasr, dostonchilik, g‘azalnavislik, tarjimashunoslik borasida ham salmoqli mehnat qilishdi. Omon Matjon ham proza, ham poeziyada birday qalam tebrata oladigan, o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lgan ijodkor edi. Uning ijodida mavzular olami, g‘oyaviy-badiiy jihatlar rang-barang va u adabiy turlarning barchasida ijod qildi.

Tadqiqot usullari va materiallari. Omon Matjon 1943-yil 14-fevralda Xorazm viloyati Yangibozor tumani Bog‘olon qishlog‘ida dunyoga kelgan. O‘rta maktabni tugatgach, u Samarqand Davlat universitetida tahsil oladi. Omon Matjon 1969- yil oliygohni yakunlaganidan so‘ng, 2002-yilgacha G‘afur G‘ulom nomli Adabiyot va san‘at nashriyotida muharrir, bo‘lim boshlig‘i, so‘ngra “Yoshlik” jurnalida bosh muharrir, “Cho‘lpon” nashriyotida direktor bo‘lib ishlagan. Omon Matjon bolaligidanoq she‘rlar yozishni mashq qilgani va ilk she‘rlari esa, maktab devoriy gazetalariyu tuman gazetalari chiqib turganini aytadi. U o‘zbek she‘riyatiga 1960-yillarda o‘z yo‘li va ohanggi bilan kirib keladi. 1970- yilda shoirning “Ochiq derazalar” deb nomlangan ilk she‘riy to‘plami nashrdan chiqadi. Keyin “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Quyosh soati”, “Yarador chaqmoq” kabi kitoblarim, “Beruniy” dramatik dostonim, Pahlavon Mahmud haqidagi dostonim, “Haqqush qichqirig‘i” degan qirq afsonadan iborat kitobim, “Daraxtlar va g‘iyohlar kitobi” deb nomlangan ekologik mavzudagi kitoblarim ketma-ket bosmadan chiqdi”, - deydi shoirning o‘zi. Shuningdek, 1991- 2011- yillar o‘rtasida shoirning “Iymon yog‘dusi”, “Erkin havolarda”, “Ardaxiva”, “Xaloskor Ruh”, “Shayx



Date: 1st November-2025

Najmiddin Kubro, To‘rabekaxonim haqidagi qissalari, “Diydor Aziz” kabi kitoblari chop etilgan.

Shoir adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. 2006 yilda Omon Matjonga O‘zbekiston Xalq shoiri degan unvon berilgan. O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon Omon Matjon 2020- yil 29-oktyabrda vafot etgan”. Shoirning tarjimai holidan ham ko‘rish mumkinki, umri davomida sermahsul ijod qildi.

Natijalar va muhokamalar. Omon Matjon ijodining manbalari va omillari xilma-xil. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov televideniyeiga bergan intervyusida Omon Matjon she‘riyati haqida fikr bildirar ekan, uning ijodi ikki daryodan suv ichishini va u daryolarning biri xalq og‘zaki ijodi daryosi bo‘lsa, ikkinchisi o‘zbek klassik (mumtoz) adabiyoti daryosi ekanligini ta‘kidlab o‘tadi. Haqiqatdan ham, Omon Matjon ijodida xalq og‘zaki ijodi na‘munalariga murojaat ko‘p uchraydi. Uning asarlarida asosan, Xorazm folkloriga mansub va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlari maqol, matal,ertak, rivoyat-u afsonalarga ko‘p bor murojaat etilgan. Ikkinchi jihat, xususan, hazrat Navoiy va mumtoz adabiyot namoyondalarimiz asarlariga qilgan murojaatlarida ko‘zga tashlanadi.

Xususan, shoir ijodida afsonalar alohida o‘ringa ega. Bilamizki, afsonalar xalq og‘zaki ijodining epik turiga mansub janr hisoblanadi. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri afsona bo‘lib, u ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan voqea va hodisalarni xayoliy uydurma asosida himoya qiladi. Chunki u tabiat hodisalarini va ijtimoiy hayotni bilish va tushinishga bo‘lgan intilishlari jarayonida vujudga kelgan. Shuning uchun ham afsonada ijtimoiy hayot, kishilarning dunyoqarashi, urf odatlari va tarixiy hodisalar haqida ixcham ma‘lumot beradi”. Ta‘rifdan ham ko‘rish mumkinki, tabiat hodisalarini va ijtimoiy hayotni bilish va tushinishga bo‘lgan intilishlari, qarashlar, g‘oyalar aks etar ekan.

Omon Matjon esa o‘zining “Xaqqush qichqirig‘i” nomli 40 afsonadan iborat kitobida afsona janrini yana bir bor yuksaltirdi. Uning o‘zi afsona haqida shunday deydi: “Afsonalari mo‘l yurt – eng boy yurt, eng umrboqiy yurt. Afsonalar – eng uzoq umr ko‘radigan, ya‘ni eng ko‘p ma‘naviy xizmat qiladigan faxriy vatandoshlarimiz!” Shoir to‘plamda ba‘zi bir afsonalarni o‘zi yaratgan bo‘lsa, ba‘zi birlarini xalq orasida mashhur bo‘lgan qadimiy afsonalardan foydalanib, o‘z fikr mulohazalarini singdirgan holda bayon etadi. Mazkur kitobning 1979-yilda nashrida ba‘zi afsonalar chiqarilib, o‘rnini 80-yillarda yozilganyangi sarlar bilan to‘ldirgan. Shu jihatdan bu to‘plamdagi afsonalarni mohiyatan 2 guruhga bo‘lish mumkin:

Voqelikni tasvirlashda xalq afsonalari syujetidan foydalanish;

Voqelikni afsona usulida tasvirlash ma‘nosida yozilgan afsonalar

Xususan, to‘plamdagi “Xevoq afsonasi” afsonasi Nuh payg‘ambar to‘fon voqeasi va shu orqali Xivashahri nomining kelib chiqishi haqidagi afsona va afsonaviy, olovda tug‘ilib olovda halok bo‘luvchi qush samandar haqidagi “Samandar” afsonasida shoirning haqiqat uchun kurash olib boruvchi insonlar taqdiri xuddi shu qush singari olov ichida kechishini bayon etadi. Bular birinchi guruh afsonalar qatoriga kirsa, “Alla”, “Muallaq to‘rg‘ay”, “Ishq va Rashk”, “Tun afsonasi” kabilar ikkinchi guruh afsonalarga kiradi. Shoir



Date: 1st November-2025

“Haqqush qichqirig‘i” poemasida afsona janrining xususiyatlarini namoyon qiladi va bu orqali xalq hayoti, uning ma’naviy dunyosi, orzu-umidlari va iztiroblarini o‘z qarashlari bilan hamohanglikda bayon etadi. Uning “Yor tanlash” afsonasida esa Xorazm xalqida qadimda nishonlangan “Qizil gul” bayrami va unda yigitlarning o‘zlariga munosib yor tanlashi an’anasi yoritib beriladi. Bunda shoir umr yo‘ldosh tanlashda nimalarga e’tibor qaratish kerak ekanligi, go‘zal ma’naviyatli ayol bilan yuksaklikka erishish mumkinligi bayon etiladi. Omon Matjon bu poemasi orqali afsonalarning xalq hayotida muhim o‘rin egallashini yana bir bor isbotlab berdi.

Masalan, “Mangulikning o‘lchovi” she’riga e’tibor qarataylik.

Bir donodan so‘rabdilar:

“Javob bering, bobojon,

Vaqtning bormi tarozusi,

Necha yoshda bu jahon?!

Mangulikka biron narsa

Bormi qiyos etarlik?!

Qancha kechgan unda yana

Qanchagacha yetarlik?!”

Bir kishining savoliga donishmandning javobi quyidagicha bo‘lindi.

Insonning vaqt o‘lchashlari

Vaqt oldida o‘yindir...

Fursatning tub hikmatlarin

Ilg‘ab yetmak qiyindir.

Shunday deya, o‘n sakkiz ming olam, oy, quyosh, osmon, yer, tog‘ kabi obrazlardan foydalanib fikrini davom ettiradi. Bir Olmos tog‘ bor, siz-bizning tasavvurimizdan ming-minglab kattaroq. Shu tog‘, jumla mavjudotning eng markazi. Har yuz yilda bir marta mitti qushcha uchib keladi. Tog‘ qanchalik katta bo‘lsa, qushcha shu qadar kichik.

Mangulikning garchi yo‘qdir

O‘z mezon, o‘z soati,

Lekin juda hikmatlidir

Qushchaning bir odati:

Har yuz yilda olmos tog‘ni

Qushcha tavof etadi.

Har yuz yilda unga bir bor

Tumshuq shuykab ketadi.

Qush shu taxlit kela-kela,

Tog‘ni qayrab yo‘q etsa,

O‘tdi degan gap bo‘lar shu,

Mangulikdan bir lahza!”

Shu taxlid donishmand o‘z fikrlarini yakunlabdi. Inson zoti borki, mangulikning qancha davom etishini anglashi, his qilishi, tushunishi mumkin, biroq uni ko‘ra olmaydi.



Date: 1st November-2025

Xulosa. Afsonalar xalq og‘zaki ijodining mahsuli. Ularni qayta ishlab, sharhlab, izohlab, badiiy jihatdan boyitish shoirning individual poetik mahoratidan darak beradi. Omon Matjonni Navoiyga ruhan va ma‘nan izdosh shoir sifatida e‘tirof etish mumkin. Shoirning “Haqqush qichqirigi” asari balki, qirq hadis talqiniga bag‘ishlangan “Arbain”ning ta‘sirida yaratilgandir. Umuman olganda, shoir ijodi o‘zining janriy turfa xilligi bilan ajralib turadi. Badiiylik mezonlariga to‘liq javob beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/omon-matjon-75-yoshda.html>
2. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi 1990. – B. 174.
3. Matjon Omon. “Haqqush qichqirig‘i”. T., 1979. 13-bet.
4. Matjon Omon. “Haqqush qichqirig‘i”. T., 1979. – B. 187.
5. H. Safarova, A crow, an owl, a sheep, a bird turned your flowers...:(On the example of the work of the poet Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).
6. H. Safarova, The formation of musammat (octaves) in the literary environment of Bukhara (based on the poems of Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en). 8 (2021)
7. H. Safarova, Navoi does not need a soul, but. Center for Scientific Publications (bukhdu. en). 3 (2021)
7. A. Hamroyev, H. Jumayeva, E3S Web of Conferences 420. 10007 (2023)
8. H. Safarova. The agony of missing the sun and heat. Center for Scientific Publications (bukhdu. en) 8(8) (2021)
9. H.O. Safarova. Parents double wings to the child. Indonesian Journal of Innovation Studies 18 (2021)
10. Okhunjonovna, S. H., Bakoevna, R. M., & Kadirovna, A. Z. (2023). Travelogues in The Literature of Bukhara at The End of The 19th and The Beginning of The 20th Century. Res Militaris. Social Science Journal/Res Militaris, 13(1), 2023-258.
11. Rajabova, M., Safarova, H., Amonova, Z., Shirinova, M., & Ibotova, M. (2024). The world of subjects in "Nazm Ul-Javahir" by Alisher Navai. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05023). EDP Sciences.
12. Safarova, H., Rajabova, M., Amonova, Z., Shirinova, M., & Maxmudova, R. (2024). Activity of Cholpan in the literary environment of Bukhara. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05036). EDP Sciences.
13. Amonova, Z., Rajabova, M., Safarova, H., Shirinova, M., & Akhrorova, Z. (2024). The teachings of Hurufism and Nasimi’s poetic skills. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05037). EDP Sciences.
14. Amonova, Z., Rajabova, M., Safarova, H., Shirinova, M., & Akhrorova, Z. (2024). The teachings of Hurufism and Nasimi’s poetic skills. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05037). EDP Sciences.
13. Rajabova, M., Amonova, Z., Qodirova, N., Rajabova, R., & Ibotova, M. (2024).



Date: 1st November-2025

Interpretations on ecological problems and their solution in the works of Abu Ali ibn Sino. In E3S Web of Conferences (Vol. 587, p. 02019). EDP Sciences.

15. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.

16. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.

17. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.

18. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.

19. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.

20. Davronova S. Eastern and western literary tradition in the modern uzbek novels //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.

21. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.

22. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.

23. Shokhsanam D. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2016. – Т. 4. – №. 5. – С. 33-34.

24. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.

25. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.

26. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА "ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АК-САДОСИ") («ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ») //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

27. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.

28. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK KHAMDAM'S NOVEL " FATHER.

29. Davronova S., Kandimova I. CHARACTER CREATION SKILLS OF LUKMON BORIKHAN //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE



Date: 1st November-2025

TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 30-34.

30. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.

31. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.

32. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.

33. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.

34. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.

35. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).

36. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.

37. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.

38. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.

39. Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

40. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.

41. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси, (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.

42. Saidova, Nodira Mustakimovna. "G'AZAL TAHLILIGA GERMENEVTIK YONDASHUV." *Scientific progress* 4.2 (2023): 324-327.

43. Saidova, Nargiza Makhmudovna. "Features of the Development of the Saudi Realistic Story in the Second Half of the Twentieth Century." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 8.4 (2021): 360-370.



Date: 1st November-2025

44. Saidova, Nodira. "Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar." *Science and Education* 3.2 (2022): 562-567.
45. Nodira, Saidova. "PEOPLE'S ORAL CREATIVITY-INVALUABLE WEALTH." *Archive of Conferences*. 2021.
46. Nodira, Saidova. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TAFAKKURIDA MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYANING O'RNI." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMiy JURNALI* 2.1 (2022): 298-299.
47. Nodira, Saidova. "NAVOIY VA ILOHIYOT MUAMMOSI RAHIM VOHIDOV TALQINIDA." *Innovations in Technology and Science Education* 2.8 (2023): 681-689.
48. Mustakimovna, Saidova Nodira. "Immanent and contextual text analysis immanent and contextual out-of-class based approach designing literature lessons." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 188-192.
49. Mustakimovna, Saidova Nodira. "A HISTORY OF IMMANENT AND CONTEXTUAL APPROACHES." *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.12 (2022): 34-38.
50. Mustakimovna, Saidova Nodira. "MATN TAHLILIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O'RNI." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 92-96.
51. Mustakimovna, Saidova Nodira. "SINFDAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 84-86.
52. Mustakimovna, Saidova Nodira. "O'QITUVCHI-AMALIYOTCHI TALABALARNING AMALIYOT JARAYONIDA IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARIDAN KENG FOYDALANISHI." (2022).
53. Mustakimovna, Saidova Nodira. "G'AFUR G'ULOM ASARLARINI IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARI ASOSIDA TAHLIL QILISH: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.025 Saidova Nodira Mustakimovna Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 9 (2022): 177-182.
54. Mustakimovna, SAIDOVA Nodira. "IMMANENT VA KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA SINFDAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH JARAYONINING MAZMUNI." *EDAGOGIK AHORAT*: 94.
55. Саидова, Нодира Мустакимовна. "O'QITUVCHI-AMALIYOTCHI TALABALARNING AMALIYOT JARAYONIDA IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARIDAN KENG FOYDALANISHI: Saidova Nodira Mustakimovna, Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 5 (2022): 141-145.
56. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.



Date: 1st November-2025

57. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
58. Eshonqulov H. Alisher Navoiy oshiqona g'azallarining badiiy qurilishiga oid o'ziga xosliklar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
59. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
60. Tursunovna S. D., Pirimovich E. H. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER.
61. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – Т. 3. – №. 3.
62. Садикова Д. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.
63. Tursunovna S. D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 14.
64. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIKHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.
65. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
66. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕСКИ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТЕССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.
67. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
68. Садикова Д. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
69. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
70. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
71. Садикова Д. The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.



Date: 1st November-2025

72. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.

73. Садикова D. The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

74. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.

75. Sh, Hayitov. "Depiction of king and great leaders in classic literature." *International Journal on Integrated Education* (2020): 161-164.

76. Hayitov, Shavkat Ahmadovich. "DREAM OF A PERFECT RULER." *Theoretical & Applied Science* 1 (2020): 459-463.

77. Sh, Hayitov. "The genre of manokib and the problem of a perfekt human being." *International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192.*

78. Hayitov, Shavkat Akhmadovich. "The altitude of maturity." *Scientific reports of Bukhara State University* 3.1 (2020): 167-172.

79. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – С. 4753-4767.

